

### TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV FAOLIYATI DALILLARNING MAQBULLIGINING AYRIM JIHALARI.

99541 HARBIY QISM KOMANDIRINING  
YORDAMCHISI YURISKONSULT  
adliya leytenanti  
*S.U.Tuygunov*

**Annatatsiya:** Har qanday sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat protsessual talablari va qoidalari asosida isbotlanishi, isbotlash jarayoni esa haqiqatni ko'rsatuvchi hamda maqbul dalillarga tayangan holda yuritilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlariga nisbatan qarshi qaratilgan g'ayriqonuniy, aybli, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilar ekan, uni sodir etgan subyektga nisbatan Jinoyat kodeksi talablari asosida (Jinoyat kodeksi 10-modda) jinoiy javobgarlik choralari vakolatli odil sudlov organlari tomonidan ko'rilishi kerak. Jinoiy javobgarlik masalasini hal etish maxsus vakolatli organlar tomonidan holat obyektiv o'rganilib, isbotlanishi lozim bo'lgan barcha jihatlarning aniqlanishini taqozo etadi. Bu jarayon ko'plab bosqichlarda amalga oshiriladi. Jinoyat protsessining har bir bosqichi ma'lum jinoyat va jinoyat protsessual kodekslari talablari asosida va ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan yoki etilmaganligini, sodir etilgan bo'lsa, sodir etilganligini isbotlovchi dalillarga tayangan holda olib boriladi. Shaxsning aybli yoki aybsizligi sud organlari tomonidan sudgacha va sud jarayonida tomonlarning ko'rsatgan dalillari asosida hal etiladi. Jinoyat ishi bo'yicha dalillar o'z o'rnida belgilangan qonunchilik qoidalari asosida aniqlangan, ya'ni ish uchun maqbul bo'lishi kerak.

Jinoyat ishi bo'yicha dalil tushunchasiga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat- protsessual kodeksining 81-moddasi 1-qismida «Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar», - deb ta'rif berilgan. Mazkur ta'rifdan kelib chiqib, jinoyat ishi bo'yicha dalil tushunchasi faqatgina jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng yig'ib boriladigan ish uchun ahamiyatli haqiqiy ma'lumotlar emas, balki jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldingi bosqichda ijtimoiy xavfli qilmish aslida sodir etilgan yoki yo'qligini ko'satuvchi dalillar ham ekanligini tushunish mumkin.

Bizningcha, jinoyat protsessual qonunchilikda dalillarga berilgan ta'rifda bevosita jinoyat ishi bo'yicha dalillarni surishtiruvchi, tergovchi va sud tomonidan qonunda belgilangan tartibda aniqlashi haqidagi jumla jinoyat protsessining boshqa qoidalariga qisman to'g'ri kelmaydi. Masalan, Jinoyat- protsessual kodeksining 95'-moddasi 1-qismi 4-kichik xat boshida "jinoyat ishi bo'yicha protsessual harakatning mazkur jinoyat ishini yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan bajarilishi natijasida olingan faktik ma'lumot dalil sifatida maqbul emas deb topiladi", deb ko'rsatilgan. Mazkur modda talabi va Jinoyat- protsessual kodeksining 81-moddasining 1-qismida to'g'ridan-to'g'ri dalillarni aniqlavchi subyektlarning ko'rsatilishi Jinoyat- protsessual kodeksining 39<sup>2</sup>-moddasi 3-qismiga nomuvofiqdir. Jinoyat- protsessual kodeksining

39<sup>2</sup>-moddasi 3-qismida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig'ining va uning mansabdor shaxsining vakolatlaridan biri sifatida dalillarni to'plash faoliyati qayd etilgan.

Tergovga qadar tekshiruv bosqichida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganmi-yo'qmi, degan savolga javob topish asosiy vazifalardan biri. Mazkur vazifani bajarish uchun qonunchilik tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig'i va uning mansabdor shaxsiga vakolatlar va majburiyatlar yuklaydi. Jinoyat- protsessual kodeksining 81-moddasi 1-qismida dalillarga berilgan ta'rifning avvalida ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini ko'rsatuvchi faktik ma'lumotlar dalil sifatida qayd etilgan. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan-etilmaganligini aniqlash jinoyat haqidagi dastlabki kelib tushgan arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni o'rganish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tergovga qadar tekshiruv organlarining dalillarni aniqlash, to'plash, ular asosida mustaqil qaror qabul etishi orqali amalga oshiriladi. Bu esa tergovga qadar tekshiruv organlarining bevosita dalillarni aniqlashi lozimligini taqozo etadi. Lekin Jinoyat- protsessual kodeksining 81-moddasi 1-qismida faqatgina surishtiruv, tergov va sud organlari tomonidan dalillar aniqlanishi qayd etilgan. Tergovga qadar tekshiruv organlari dalillarni aniqlovchi sifatida qayd etilmasligi Jinoyat- protsessual kodeksining 95<sup>1</sup>-moddasi talabi bilan tergovga qadar tekshiruv organining qabul qilgan har qanday qaroriga asos sifatida ko'rsatilgan dalillar nomaqbulligiga olib keladi. Nomaqbul dalil orqali qabul qilingan qaror O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi pleniumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-sonli qarorida ko'rsatilganidek yuridik kuchga ega bo'lmay qoladi. Bizningcha, tergovga qadar tekshiruv faoliyatini hozirgi kunda asosan surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorlar emas, tergovga qadar tekshiruv organ mansabdor shaxslari amalga oshirib kelayotganligini, tergovga qadar tekshiruv bosqichining asosiy maqsadi sodir bo'lgan holatni obyektiv o'rganib, o'rganish natijasida yig'ilgan dalillarga asoslanib Jinoyat- protsessual kodeksining 330-moddasida ko'rsatilgan qarorlardan birini qabul qilishi lozimligini, Jinoyat- protsessual kodeksining 39<sup>2</sup>-moddasida dalillarni to'plashga vakolati mavjudligini hisobga olib, Jinoyat- protsessual kodeksining 81-modda 1-qismiga ma'lum tuzatishlar kiritish lozim. Masalan, Jinoyat- protsessual kodeksining 81-modda 1-qismini "Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni vakolatli organning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi", deb o'zgartirish maqsadga muvofiqdir.